

YUKSAK MADANIYAT VA NOYOB MA'NAVIYAT MASKANI

Abdurahmonova Nazokat Davlatboy qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizdagi noyob madaniy va ma'naviy hamda arxeologik maskanlar va mintaqamizga tegishli kitoblar atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat maskani, Axsikent, Umarshayx Mirzo, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy merosini, arxeologiya merosi.

ВЫСОКАЯ КУЛЬТУРА И УНИКАЛЬНАЯ ДУХОВНОСТЬ МЕСТО

Абдурахманова Назокат дочь Давлатбоя

Студент Наманганского государственного университета

Аннотация. В данной статье подробно анализируются уникальные культурные и духовно-археологические места нашей страны и книги, связанные с нашим регионом.

Ключевые слова: Место духовности, Ахсикент, Умаршайх Мирзо, научно-просветительское, духовное наследие, археологическое наследие.

HIGH CULTURE AND UNIQUE SPIRITUALITY THE PLACE

Abdurahmanova Nazokat Davlatboy's daughter

Student of Namangan State University

Abstract. In this article, the unique cultural and spiritual and archaeological places of our country and books related to our region are analyzed in detail.

Key words: Place of spirituality, Ahsikent, Umarshayx Mirzo, scientific-enlightenment, spiritual heritage, archaeological heritage.

Xalqimizning boy va betakror tarixi haqida gap ketganda Farg'ona vodiysining marvaridi Axsikentga e'tibor bermaslik mumkin emas. Chunki, tarixda Axsikent nafaqat Farg'ona vodiysi, balki butun Turkiston mintaqasi xalqlari hayotida o'ziga xos o'ren

tutgan shaharlardan hisoblangan. Bu makondan o‘tmishda ko‘plab jahongashta hukmdor, olim-u fuzalolar yetishib chiqqanki, albatta tarixda ularning o‘z o‘rirlari bor. Bugun axsikentlik olimlar qalamiga mansub durdona kitoblar jahondagi mashhurkutubxonasi va muzeylar fondlarida saqlanmoqda. Ularni o‘rganish, ajdodlarimiz ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy merosini avlodlarga yetkazish oldimizda turgan sharaflı vazifalarimizdandir.

2017 yil 16 oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida «Axsikent» arxeologiya merosi ob‘ektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida” №831-Qarori qabul qilindi. Axsikentning haqqoniyligi tarixini yaratish Qarorda ko‘rsatilgan asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Qadimshunos olimlar tomonidan “Farg‘ona Afrosiyobi” -deya ta‘rif berilib, Aksi yoki Axsikent nomi bilan ataluvchi ko‘hna shahar xarobalari bugungi kunda To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shahand va Gulqishloq qishloqlari orasida, Sirdaryoning shimolida do‘ngtepaliqlar ko‘rinishida yastanib yotibdi. Mazkur Eski Aksi manzilgohi Farg‘ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Axsikent yurtimizdan yetishib chiqqan ko‘plab allomalarining kindik qoni to‘kilgan zamin hamdir. Xususan, Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad as-So‘fiy Axsikatiy, “Zul Fazoil” (“Fazilatlar sohibi”) nomi bilan shuhrat qozongan Abu Rashod Axsikatiy, “Zul Manoqib” (“Maqtovga sazovor xislatlar egasi”) laqabini olgan Abul Vafo Muhammad ibn al Qosim al-Axsikatiy, “Maliki shuar” (“Shoirlar podshosi”) va “Amiri shuar” (“Shoirlar amiri”) darajasiga erishgan Abdul Fazl Muhammad Tahir Asiriddin Axsikatiy, Tojuddin Abu Bakr bin Ahmad al-Axsikatiy al-Xo‘jandi, Sayfiddin Axsikatiy, Mavlono Poyanda Oxun Axsikatiy, Muhammad Yusuf ibn Imomuddin Axsikatiy, Ibrohim ibn Yusuf bin Imomuddin Axsikatiylar diniy va dunyoviy ilmlar sohasida shuhrat qozonganlar.

Tariximizning turli davrlarida poytaxt vazifasini o‘tagan Axsikentning eng ko‘hna davriga doir ma’lumotlarni asosan bizgacha saqlanib qolgan Xitoy manbalaridan, shuningdek, bu yerda o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijalari asosidagi xulosalardan olamiz. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, “Yangi Aksi” yoki “temuriylar davri Axsikenti” haqidagi fikrlar ilk bor XX asrning 60 yillarda Namangan o‘lkashunoslik

muzeyi xodimi Yu.G. Chulanov tomonidan “Sovetskaya arxeologiya” jurnalidagi “Gorodišče Aksyket” maqolasida bildirilgan. Yu.G.Chulanov maqolasida o‘z fikrini Esxi Aksi yodgorligidagi qazishmalardagi topilmalar XIII asr boshlarigacha bo‘lgan davrgagina taalluqli ekanligi, XV-XVII asrlarga oid ashyolar bu yerdan topilmaganligi bilan isbothamoqchi bo‘lgan. Shu bilan birga muallif yozma manbalarda Axsikent shahri keyingi davrlarda ham mavjud bo‘lganligi qayd etilgan bo‘lsa-da, biroq, shu davrga doir ashyoviy dalillar Esxi Aksi manzilgohidan topilmaganligi uchun Aksi qo‘rg‘oni qaerda bo‘lganligini aniqlash maqsadida Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab g‘arb sari arxeologik tekshiruvlar o‘tkazganligini yozgan edi. Buning natijasida, Esxi Aksi qo‘rg‘onidan 5-6 kilometr g‘arbroyda hozirgi Aksi qishlog‘i o‘rnida Umarshayx mirzo davrida poytaxt bo‘lgan Aksi qo‘rg‘oni joylashgan edi, degan xulosaga kelgan. Esxi Axsini u Axsikent I, yangi Axsini esa Axsikent II, deb nomlaydi. Yu.G. Chulanov shahar xarobalari Sirdaryo yoqalab bir kilometr uzunlikda yastanib yotganligini, Axsikent I dan farqli ravishda Axsikent II da xom g‘ishtdan qurilgan mustahkam masofada devorlari yo‘qligi, shahar qismlarga ajratilmaganligi, shu bilan birga shaharning ilk loyiha shaklini tiklashning iloji bo‘lmaganligini aytgan. Muallif shaharning markaziy qismi har tomondan jarlik va daryo bilan o‘ralgan qal’adan iborat bo‘lgan bo‘lishi kerak, degan taxminiy xulosaga kelgan. Shuningdek u, daryo bugungi kunda o‘z o‘zanidan 500-800 metrgacha surilib kelib, qal'a o‘rnashgan joylarni yuvib tashlaganligini, uning o‘rnida esa Aksi nomi bilan kichkina qishloq qolganligini ta’kidlagan. Chulanovning taxminlaridan yana biri, 150-200 yil mobaynida daryo o‘ng qirg‘oqni yuvib ketganligini, shu bois bu yerda mavjud bo‘lgan qadimgi mozor ham yuvilib ketganligi masalasidir. Bu taxminlar asnosida mozor ichidagi Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx mirzoning qabrini ham suv o‘pirib tashlagan bo‘lishi mumkinligini yozgan edi. Maqola so‘ngida esa quyidagi xulosalarini beradi: **1)Axsikent I ning yuqori qatlami IX-XII asrlarga taalluqli, unda XIII asrdan keyingi davrga oid ma'lumotlar uchramaydi.** **2)XV-XVII asrlardagi Aksi shahri bilan Axsikentni bir, deb hisoblash noto‘g‘ri.** **3)Aksi shahri (Axsikent II)ga temuriylar XV asrda asos solgan bo‘lib, XVII asrgacha mavjud bo‘lgan.**

Axsikentni birlamchi manbalarga asoslangan holda o‘rganilishi, istoriografik tahlil qilinishi natijasida mazkur masalaga ham aniqlik kiritilishiga ehtiyoj sezilmoqda.

Shu bilan birga Axsikentning geografik o‘rni, “Boburnoma”da nomlari zikr etilgan manzillar bilan Axsi oralig‘idagi masofalar o‘lchovi masalalariga ham yangicha yondashuv zarurati tug‘ilmoqda. Masalan, Bobur o‘z asarida to‘xtalib o‘tgan Arxiyon qal‘asi hozirgi To‘raqo‘rg‘on tumani markazidagi G‘oyibnazar Eshon madrasasi o‘rnida bo‘lganligi XX asrning 70-80 yillardagi ilmiy adabiyotlarda yozilgan. Yana shuni ham ayтиб o‘tish joizki, o‘z davrida olimlar tomonidan yozilgan tarixiy-ilmiy asarlar birlamchi manba hisoblanadi. Arxeologik topilmalar esa, o‘sha manbadagi ma'lumotlarni to‘ldirish, isbotlash uchun xizmat qiladi. Tabiiyki, hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, uy-joy qurilishida ham avvalgi an'analar davom ettirilgan. Shu tufayli qadimiy shahar atrofidagi aholi manzillarida qazishmalar chog‘ida Axsikent hunarmandchiligi namunalariga, bino-imorat qurilishidagi uslubning bir xillagini o‘zida aks ettirgan jihatlarga duch kelinishiajablanarli emas. Biroq, Namangan viloyati tarixiva madaniyati muzeyi xodimining “Yangi Axsi” haqidagi fikrlari, Umarshayx mirzo qurdirgan Axsi qal‘asi masalasidagi xulosalari esa ilmiy-manbaviy asosni, istoriografik tahlilni taqozo qiladi. Axsikentni XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus sharqshunos va arxeolog olimlaridan, akademiklar A.Middendorf va V.V.Bartold, professorlardan N.N.Veselovskiy hamda A.N.Bernshtam, tadqiqotchi-sharqshunoslар I.A.Kastane, V.Nalivkin, N.P.Ostroumov, N.Pavlov va boshqalar Axsi, Axsikat yoki Axsikent, deganda faqatgina bitta makon – Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Eski Axsi yodgorligini nazarda tutganlar. Shu o‘rinda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Axsikentni o‘rgangan tadqiqotchilarining bergan xulosalariga e’tibor qaratishni lozim, deb topdik. Yodgorlik haqidagi dastlabki ma'lumot “Turkestanskie vedomosti” gazetasining 1884 yil 12-sonida berilgan. Shundan keyin 1885 yilning fevral oyida Rossiya imperatori huzuridagi Arxeologiya Komissiyasi tomonidan S.-Peterburg universiteti professori N.N.Veselovskiy Axsikentga keladi va qazishma ishlarini olib boradi. Uning tadqiqot xulosalari Imperatorlik Arxeologiya Komissiyasining 1882-1888 yillardagi faoliyati

yuzasidan bergen hisobotida chop etildi. I.A.Kastane 1913 yilning aprel hamda iyun- iyul oylarida Rossiya imperatori huzuridagi Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi topshirig‘iga ko‘ra, Toshkent va Namangan u'ezdlarida tarixiy-etnografik tadqiqotlar o‘tkazishgaikki marta yuborilgan edi. 1913 yilning sentyabr oyida esa, tadqiqotchi Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi yig‘ilishida ilmiy safari yuzasidan ma’ruza qildi.Hisobotda ko‘rsatilishicha, safar asnosida olingan fotosuratlar ham bo‘lgan. Biroq, mablag‘ yetishmasligi tufayli ularni chop etishning imkonи bo‘lmagan. I.A.Kastane o‘z hisobotini yozishda ko‘plab sharq qo‘lyozmalaridan foydalanganini qayd qilib o‘tgan. Chunonchi, Yoqut al-Hamaviy, al-Maqdisiy, ibn Havqal, Abul Fido, Idrisiy, “Ajoyib at-Taboqot”, asarlari, “Qomusi a’lam”, Asossiz fikrlardan voz kechib, yetarli ilmiy manbalar asosida Axsikent tarixini yozish ayni dolzarb vazifadir. Axsikent tarixini o‘rganish, mazkur hududni turizm makoniga aylantirish yuzasidan ishlar endi boshlandi. Olimlarimiz oldida xali o‘rganilishi lozim bo‘lgan qanchadan-qancha ilmiy manbalar, ulkan hududni egallagan arxeologik yodgorlik turibdi. Yangi Aksi masalasida bildirib o‘tilgan fikrlar avvalgi olimlarimiz tomonidan olib borilgan ishlar qiymatini sira pasaytirmaydi. Aksincha, tarix fanida manbalarni sinchiklab o‘rganish sayin haqiqat oydinlashib boraveradi.